



“TASDIQLAYMAN”
O‘zgidromet Bosh direktori
_____ Sh. Khabibullayev

2022- yil “ ___ ” _____

Gidrometeoroloiya xizmati markazining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha Maslahat kengashi yig‘ilishining 4-sonli BAYONI

2022- yil “ 11 ” avgust

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: N.Mukxamedova – Maslahat-kengashi raisi

Qatnashdilar: O‘zgidrometning Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat kengashi a’zolari (*ro‘yxat bo‘yicha*)
O‘zgidromet markaziy apparat boshqarma, bo‘limlari va tarkibiy tuzilma xodimlari

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zgidromet markaziy apparat boshqarma, bo‘limlari va tarkibiy tuzilma xodimlarining muammolarini va ularni qiziqtirgan masalalarni o‘rganish to‘g‘risida

(Mukxamedova, Oripova, Ruziyeva, Samadxodjayeva, Isxakova, Mukxamedova)

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash yuzasidan O‘zgidromet markaziy apparat boshqarma, bo‘limlari va tarkibiy tuzilma ayol xodimlarining muammolarini va ularni qiziqtirgan masalalarni o‘rganish bo‘yicha yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishni Maslahat-kengashi raisi O‘zgidromet 1-bo‘lim yetakchi mutaxassisi N.Muhamedova kirish so‘zi bilan ochib berdi. Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlari to‘g‘risidagi Tartib bilan tanishtirdi va O‘zgidrometda Oila va xotin-qizlar davlat

qo‘mitasining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlarining asosiy vazifalari va maqsadlari, huquq va majburiyatlari, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibini belgilash hamda Markaziy apparat boshqarmalar, bo‘linmalari va tarkibiy tuzilmalar xotin-qizlari bilan hamkorlikda muvofiqlashtirish va rivojlantirish to‘g‘risida kelishib olindi.

Shundan so‘ng Gidrometeorologik kuzatuvlar tarmog‘i Gidrologik kuzatuvlar tarmog‘i bo‘limi xodimlari B.Karabayeva, G.Xamdamova Mustaqillik bayramida Prezidentimiz tomonidan imtiyoz sifatida berilgan qo‘shimcha dam olish kunlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida Buxoro viloyatiga ziyorat safari yoki Toshkent viloyatidagi dam olish maskanlariga sayohat uyushtirish bo‘yicha;

Shuningdek, GKTB xodimlari A.Vdovenko, Z.Yormatovalar tomonidan O‘zgidromet hududida xodimlarning ishlash unumdorligini oshirish maqsadida sprot maydonchalari (voleybol maydonchasi, tennis stoli, fitnes zali) tashkil etish;

Xodimlarni ayniqsa viloyat boshqarmalari xodimlarini kompyuter savodxonligini oshirish bo‘yicha “Meteoinfokom” DM ning tegishli mutaxassisleri ishtirokida malaka oshirish darslarini tashkil qilish;

Xodimlarni ishlash samaradorligini oshirish, yangi g‘oyalarni ko‘paytirish maqsadida har oyda bir marotaba psixologlar ishtirokida psixologik treninglar o‘tkazish bo‘yicha o‘z takliflarini berishdi.

Shuningdek 2020 – 2021 o‘quv yilida O‘zbekiston Milliy universitetining Gidrometeorologiya yo‘nalishi bo‘yicha O‘zgidromet rahbariyatining tavsiyasi asosida suhbat orqali o‘qishga qabul qilingan 17 nafar xodimlar uchun kontrakt pullarini to‘lashda moddiy yordam ko‘rsatilishida Xotin qizlar kengashi raisidan amaliy yordam berishlarini so‘rab iltimos qildilar.

Shu bilan birga xotin – qizlarning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida “Zakovat” intellektual turnirlarini tashkil etish bo‘yicha takliflar berildi.

Gidrometeorologiya xizmati markazining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashi nizomiga muvofiq, Kengash kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib, oddiy ko‘pchilik ovozi asosida

QAROR QILADI:

1. Maslahat-kengashi a‘zolari

- Kasaba uyushmasi (Z.Aliyeva) bilan birgalikda Mustaqillik bayramida dam olish kunlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida Buxoro viloyatiga 2 kunlik ziyorat safarini tashkillashtirish bo‘yicha taklif ishlab chiqib rahbariyatga kiritilishini;

- Молия бошқармаси (С.Халияров) билан ҳамкорликда 2020 – 2021 о‘қув йилида О‘zbekiston Milliy universitetining Gidrometeorologiya yo‘nalishi bo‘yicha O‘zgidromet rahbariyatining tavsiyasi asosida suhbat orqali o‘qishga qabul qilingan 17 nafar xodimlar uchun kontrakt pullarini to‘lashda moddiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha taklif ishlab chiqib rahbariyatga kiritilishini ta‘minlasin.

2. Yoshlar yetakchisi S.Oripova xotin-qizlarni ish salohiyatini oshirish va sog'lomlashtirish maqsadida xodimlarni ishdan tashqari vaqtlarida O'zgidromet hududida sport mashg'ulotlari bilan shug'illanishlari uchun taklif ishlab chiqib rahbariyatiga kiritilishini ta'minlasin.

3. Kadrlar bo'limi (Sh. Ibragimova, D. Samadxodjayeva) O'zgidrometda faoliyat yuritayotgan ayollarning yashash sharoitini o'rganib ular orasidan yosh bolali, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan va ayollar daftarlariga kiritilganlarni aniqlab ro'yxat shakllantirilishini;

ishga kirish maqsadida murojaat qilgan nomzodlar bilan o'tkaziladigan suhbat yoki boshqa jarayonlarda, ish beruvchi tomonidan vazifa va lavozimlarga tayinlashda hamda kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlash choralari ko'rish, rahbarlik lavozimlariga iqtidorli, talabchan va mas'uliyatli xotin-qizlar nomzodlarini tavsiya qilinishi hamda ishga qabul qilinishini ta'minlasinlar.

4. "Meteoinfokom" DM (F.Boltaboyev) xodimlarning kompyuter savodxonligini oshirish bo'yicha taklif ishlab chiqib rahbariyatga kiritilishini ta'minlasin.

5. O'zgidrometning Axborot-xizmati bo'limi (M.Ruziyeva) O'zgidrometda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni va bu borada amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etiladi.

6. Kadrlar bo'limi (D. Samadxodjayeva), Murojaatlar bilan ishlash va ijro bo'limi yetakchi mutaxassisi (D.Isxakova) bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi so'roviga asosan, O'zgidrometda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etib borilishini tashkil etsinlar.

7. Kengash kotibi Kengash a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirib borilishini ta'minlasin.

8. Kengash qarorida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Yig'ilish kotibi

D.Isxakova